

KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA FONETIKANING QIYOSIY TAHLILI



Samarqand davlat chet tillar institute
Koreys filologiyasi kafedrasi magistri
Xoliqulova Ozoda Asqar qizi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada koreys va o'zbek tillarida qiyosiy tilshunoslik va uning o'zbek tillari fonetikasi qiyosiy tahlil qilinadi. Ikki tilda ham sodir bo'ladigan so'z tarkibidagi fonetik o'zgarishlar (assimilyatsiya, dissimilyatsiya, tovush tushishi, ortishi va o'zgarishi)ning e'tiborini qaratishi lozim bo'lgan jihatlari yoritilgan. Bundan tashqari tillardagi unli va undoshlar tizimining umumiy va farqli jihatlari xususida ham fikr boradi.

Kalit so'zlar: Qiyosiy tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tipologiya, kontrastiv tilshunoslik, fonetik sath, unlilar tizimi, undoshlar tizimi, fonetik o'zgarishlar, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, tovush o'zgarishi, tovush qo'shilishi va tovush tushib qolishi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется сравнительное языкознание корейского и узбекского языков, а также фонетика узбекских языков. Выделены аспекты фонетических изменений (ассимиляции, диссимилияции, уменьшения, увеличения и изменения звука), происходящих в обоих языках. Кроме того, обсуждаются общие и различные аспекты системы гласных и согласных в языках.

Ключевые слова: Сравнительное языкознание, → сравнительное языкознание, лингвистическая типология, контрастивная лингвистика, фонетический уровень, система гласных, система согласных, фонетические изменения, ассимиляция, диссимилияция, изменение звука, добавление и потеря звука.

ANNOTATION

In this article, the comparative linguistics of Korean and Uzbek languages and the phonetics of Uzbek languages are analyzed. The aspects of phonetic changes (assimilation, dissimilation, sound reduction, increase and change) that occur in both languages are highlighted. In addition, common and different aspects of the vowel and consonant system in languages are discussed.

Key words: Comparative linguistics, → comparative linguistics, linguistic typology, contrastive linguistics, phonetic level, vowel system, consonant system, phonetic changes, assimilation, dissimilation, sound change, sound addition and sound loss

Qiyosiy tilshunoslik-bu XVIII-XIX asrlarda olimlar dunyoning turli burchaklarida so‘zlashadigan tillar orasida o‘xshashliklarni sezaloshagan tadqiqot sohasi. Qiyosiy tilshunoslikni o‘rganish tillarni o‘xshashlik va farqlarni aniqlash uchun taqqoslashni va ularning ajodolari shakllarini tiklashni o‘z ichiga oladi.

비교언어학 (Qiyosiy tilshunoslik) 은 같은 기원을 가진 언어들의 관계와 시간이 지남에 따라 일어나는 언어의 변화를 다루는 학문이다. 역사언어학의 한 분야이다. 언어는 계속 변화하므로 역사언어학에서는 공통의 조어에서 갈라진 여러 언어의 계통을 연구하고 고대 조어를 재구성하기도 하는데 같은 조어에서 갈라진 여러 언어들을 통틀어 한 어족이라고 이른다. 또 같은 어족 내에도 여러 하위 관계가 있을 수 있어 한 어족은 또 여러 어파로 나뉜다.

Qiyosiy tilshunoslik, komparativistika — tilshunoslikning qarindosh tillarni, ya’ni genetik jihatdan o‘zaro bog‘liq tillarni o‘rganuvchi, ular o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlovchi hamda ularning zamon va makon bo‘yicha tadrijiy taraqqiyotini tavsiflovchi sohasi; til oilalarining, shu tizimlardagi ayrim tillar va elementlarning kelib chiqishini aniqlash, jumladan, tillar o‘rtasidagi genetik qarindoshlikni — ularning yagona bir manba (bobo til) dan kelib chiqqanligini aniqlash (tillarning genealogik tasnifi) ham Qiyosiy tilshunoslikning maqsadlari doirasiga kiradi.

“Qiyosiy tilshunoslik”ning asosiy yo‘nalishlari. Muayyan bir metodining o‘ziga xos tadqiqot tamoyili va aspektalariga, yuqori natijalarni qo‘lga kiritish uchun asos bo‘ladigan usullar majmuyiga ega bo‘lishi uning lingvistik ta’limot, yo‘nalish va soha maqomlariga ega bo‘lishiga olib keladi. Masalan, o‘z ibtidosiga qiyoslash bilan bog‘liq usullar vositasida ega bo‘lgan qiyosiy-tarixiy, tipologik va kontrastiv metodlarning “Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik”, “Tipologik tilshunoslik / lingvistik tipologiya”, “Kontrastiv tilshunoslik” singari yo‘nalish, soha va fan maqomlarida qo‘llanishi shundan darak beradi. Shu jihatiga ko‘ra, qiyosiy tilshunoslikning quyidagi yo‘nalishlarini farqlash mumkin:

1. **Qiyosiy tilshunoslik** – tillarning taraqqiyot bosqichlari bilan bog‘liq holda tarixiy qiyoslash asosida ularning genetik asosi bo‘lgan bobo tilni (prototil) belgilash, rekanstruksiya (qayta tiklash) yordamida qarindoshlik darajasini aniqlash va til oilasi, guruhlari doirasida tasnifiy tahlil qilishni nazarda tutadigan sohasidir.

Ushbu xususiyatlar qiyosiy-tarixiy tilshunoslikni tillarni o‘xshash belgilariga ko‘ra tasniflovchi yo‘nalish ekanidan darak beradi. Zotan, bunday yo‘nalishdagi qiyoslashdan ko‘zlangan asosiy maqsad: 1) qiyoslanuvchi tillarlarga xos o‘xshash belgilarni aniqlash, 2) ularga tayanib, tillarning genetik asosi bo‘lgan bobo tilni belgilash, 3) qarindoshlik darajasiga ko‘ra, til oilasi, guruhlari doirasida tasniflash

kabilardan iboratdir. Mazkur maqsalar ijrosini ta'minlashda esa ichki va tashqi rekanstruksiya, etimologik tahlil, ilmiy faraz singari usul va vositalarga tayaniladi.

역사 비교 언어학은 개별 언어의 통시적인 변화 과정을 포착, 기술하고(역사 언어학), 이를 바탕으로 언어들을 비교해(비교 언어학) 계통을 알아내고, 기록되지 않은 이들의 공통 조상(조어)을 추적하는 언어학의 한 분야이다. 즉, 역사비교언어학은 역사언어학과 비교언어학이 합쳐진 학문이다.

언어를 횡적으로 연구하는 공시 언어학과는 다르게, 언어의 변화뿐만 아니라 언어(엄밀히는 어휘를)를 비교하기 때문에 역사 비교 언어학에서 가장

2. Lingvistik tipologiya (언어유형론) (yunon. typos – andoza, qolip, namuna) - qarindosh va noqardoshligidan qat'iy nazar, ikki va undan ortiq tillarga xos sath birliklari, funksional shakllarning qiyosi asosida umumiy va farqli belgilarni aniqlash hamda tipologik guruh va kategoriyalar doirasida tahlil qilishni nazarda tutadigan sohadir. Qiyoslash maydonining kengligi jihatidan qiyoslashning eng universial vositasi sifatida e'tirof etiladigan lingvistik tipologiyaning asosiy maqsadi qiyoslanuvchi tillar srtukturasiga xos tipologik umumiylilik va xususiyliklarni tahliliy aniqlash va ushbu natijalardan tillarni o'rganish, o'rgatishda, leksikografik, tarjimashunoslik amaliyotlarida unumli foydalanishdir.

Lingvistik tipologiyada qiyoslanuvchi tillarning funksional xususiyatlari, dinamik vositalari tahliliga alohida ahamiyat beriladi. Bning natijasida tillarning klassifikatsion (tasnifiy), xarakterologik, belgili va ichki tizimga asoslanuvchi tipologik ko'rsatkichlari bilan bog'liq: 1) lisoniy tiplar, 2) tip va podtiplar munosabatiga asoslanuvchi xarakterologiyalar, 3) lisoniy universalilarni belgilash imkonini tug'iladi.

언어유형론 (Lingvistik tipologiya) 또는 단순히 유형론은 언어학에서 단순하게는 세계 여러 언어들을 조사하여 그 유형을 분류하는 연구를 말한다. 더 나아가, 유형론은 단순한 조사와 분류에서 끝나는 것이 아니라, 이를 일반화하여 인간의 언어가 가지는 보편적인 성격을 탐구하는 것을 말한다.

언어학의 하나의 방법론으로써 유형론은 이러한 '언어의 유형을 연구하는 것'만을 의미하지는 않는다. 유형론적 연구는 형식적 혹은 논리적 연구에 맞서는 것으로 언어의 기능, 인식 구조, 화용적 성격, 역사적 성격을 중요시여기는 방법론을 말한다. 다시 말해, 형식적 문법 연구가 이론내적 개념을 기반으로 하며

언어 외적 요소를 배제하려는 것인데 비하여, 유형론은 언어 외적인 실세계의 문제를 적극적으로 끌어 들여 언어 현상을 설명하려는 방법론이다.

3. Kontrastiv tilshunoslik (대조언어학) (fr. contraste-zid, qarama-qarishi) – ikki tilni, xususan, ona tili va xorijiyarni umumiy va xususiy belgilariga ko‘ra tasniflash, ularga xos noo‘xhash va zid ko‘rsatkichlarni kontrast guruhlar doirasida tahlil qilish sohasidir. Kontrastiv tilshunoslik: 1) qiyoslash jarayoni asosan ikki tilning (ko‘pincha ona tili va xorijiy tillarni) bevosa, ya’ni ketma-ket qiyosiga asoslanadi, 2) bunday qiyosiy tahlilda qiyoslanuvchilarga xos genetik, kategoriyal, struktur ko‘rsatkichlar emas, balki muayyan bir sath birliklari (leksik, morfologik) ishtirok etadi, 3) tillarning qiyosi cinxpon, ya’ni ularning amaldagi faoliyatiga xos lisoniy birliklar asosida olib boriladi, 4) bunday qiyosdan ko‘zlangan maqsad: tillardagi o‘xhash va noo‘xhashliklarni aniqlash emas, balki ulani kontrast, ya’ni noo‘xash, qarama-qarish ko‘rsatkichlar vositasida o‘rganish va o‘rgatishdir. Tilshunoslikda ushbu soha ‘konfrontativ lingvistika’ termini bilan ham yuritiladi.

대조언어학 (Kontrastiv tilshunoslik)은 언어학의 한 분야이며 두개이상의 언어를 똑같은 관점으로서부터 대비시켜 차이점을 드러나게해 또 그 차이점들에 대해서 분석하는 분야이다. 대조언어학은 계통관계에 유래한다고 가정되는 몇몇 언어 간의 유사점에 착목하는 비교언어학과 달리 그저 언어 간의 차이점에 착목하기 때문에, 역사적 관계도 상관없이 아무 두개이상의 언어나 대상이 될 수가 있다. 그리고 대조언어학의 범주로 떨어지는 연구의 경우 대상으로 잡히는 언어는 단 두개의 경우가 대부분이며, 어떤 언어를 배우는 학습자들의 모어와 그 배우는 언어를 대상으로 하면 그 연구 성과를 그들을 지도할 시 이용할 수가 있다. 언어를 배울 때 자신의 모어하고 배우고 있는 언어가 어떤 점에서 어떻게 달리는지를 의식하고 중요한 차이점이 무엇인지를 알게 되면 자신이 그 언어를 배우는데 하마터면 나타날 수 있는 많은 오류를 효과적으로 차단시키는 것에 도움이 되기 때문이다. 따라서 언어 교사를 지향하는 학생들에게 인기가 많으며 응용언어학적인 성격이 크다고 볼 수가 있다.

Bir qator turkologlar tadqiqotlarida oltoy tillarining genetik jihatdan qarindosh ekanligi asoslangan. J.Deni "Dunyo tillari" kitobida turkiy, mo‘g‘ul, tungus-manchjur

guruhiiga kiruvchi tillarning quyidagi umumiy belgilarini ko'rsatadi. Bu umumiy belgilarning ko'pchiligi koreys tiliga ham tegishlidir.

Fonetik sathda (음성학적 특성): unlilar uyg'unligi, so'z boshida sonor tovushlarning ishlatilmasligi, so'zda undosh tovushlarning yonma-yon kelmasligi, so'z oxiridagi n tovushining beqarorligi;

Morfologik sathda (형태학적 특징): grammatik rodning yo'qligi, o'zakning mustaqil ma'no anglatishi, agglyutinativ xususiyatga egaligi; suffiksal xarakterdaligi, ya'ni prefikslarning yo'qligi, predloglar o'rnida ko'makchilarning qo'llanishi, grammatik son - birlik va ko'plikning mavjudligi.

Sintaktik sathda (구문적 특징): gapning muayyan qurilishga egaligi, son bilan ifodalangan aniqlovchilarda sonda moslashuvning uchramasligi, so'roq ma'nosining ifodalanishida yuklamalarning qatnashishi, aniqlovchi vazifasida keluvchi sifat, son, olmoshlarning aniqlanmishga muvofiq o'zgarmasligi va h.k.

Leksik sathda (어휘적 특징): lug'at tarkibida umumiy qatlamning mavjudligi, bir bo'g'inli so'zlarda mushtaraklikning yaqqol sezilishi, siyosiy-ijtimoiy muhit ta'sirida hukmron til leksikasining o'zlashganligi va shu kabilar.

Oltoy tillariga mansub bo'lган turk, mo'g'ul, tungus-manchjur va koreys tillarining genetik aloqalarini o'rganish davom etmoqda. Bu borada tadqiqotlar yaratilmoqda.

KOREYS VA O'ZBEK TILLARI FONETIKASI

(음성학)

Har bir til oilasining boshqa til oilalaridan ajratib turuvchi xususiyatlari mavjud. Oltoy tillar oilasi uchun xos bo'lган singarmonizm, so'z boshida undoshlarning ketma-ket kela olmasligi, bir bo'g'inda undoshlarning qator kelmasligi, gap bo'laklarining joylashish tartibi kabi xususiyatlar bu tillarni boshqa til oilalaridan farqlab turadi. Muayyan tilga xos xususiyatlar shu til oilasining til qurilishi. grammatik tizimini tashkil etadi. Til oilasining o'ziga xos xususiyatlari muayyan davr nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Tilga xos fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfem-morfologik xususiyatlar o'zgaruvchan bo'lib. turli tillardagi o'xshash jihatlar genetik asos til belgilari bilan izohlanadi. Shu bilan bir qatorda tashqi omillar ham nazarda tutiladi.

Unlilar tizimi (모음 체계). Dunyodagi barcha tillarda bo'lgani kabi turkiy tillarda ham unli va undoshlar oppozitsiyasi mavjud. Hozirgi turkiy tillarda unli va undosh tovushlar miqdori bir xil emas. Tuva, gagauz, chulim, tatar tillarida unlilar miqdori variantlari bilan hisoblaganda yigirmatadan ortadi. Masalan, koreys tili fonetikasida 10 ta unli fonema beriladi: Ҩ -a; Ҩ-ya; Ҩ-о; Ҩ-yo; Ҩ-о:, Ҩ-yo:, Ҩ-у, Ҩ-yu, Ҩ-ы,

О|-и, ∴ V.V.Radlov fikricha, umumturkiy bobo til davrida sakkizta unli mavjud bo‘lgan. Turkiy tillarning aksariyatida unli fonemalar 8ta.¹

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida 6 ta unli fonema mavjud: a, o, i, e, u, o‘.

O‘zbek tilida ikki unlining yonma-yon kelishi mavjud emas. Biror bir unli tovushdan keyin boshqa unli kelmaydi.

Undoshlar tizimi.(자음 체계) Oltoy tillar undosh tovushlar miqdori jihatidan, deyarli, farqlanmaydi. Oltoy tillar fonetikasiga bag'ishlangan adabiyotlarda undoshlar 20tadan miqdorda ko‘rsatiladi. 30 tagacha bo‘lgan undoshlar tizimida umumiyligi jihatlar bilan birga farqli xususiyatlар ham mavjud. Masalan, o‘zbek tilida undoshlar so‘z tarkibida qo‘llanish o‘rnini nuqtayi nazaridan o‘zaro farqlanadi.

Otoy tillarda undoshlar tizimidagi umumiyligi jihatlar quyidagicha:

1) sof o‘zbek so‘zlar sonor tovush bilan boshlanmaydi (bunday so‘zlar uchrasa, ular boshqa tildan o‘zlashgan yoki keyingi fonetik taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan bo‘ladi);

2) sonorlar ko‘proq so‘zning oxirgi qismida uchraydi. Sonor bo‘lmagan undoshlar esa so‘zning boshida ham, oxirida ham keladi. Bu hodisa oltoy tillar tarixining eng qadimgi davrlarida kuchli bo‘lgan.

3) qadimgi o‘zbek til va undan keyingi davrlarda jarangli undoshlar so‘z boshida juda kam qo‘llangan. Umuman, turkiy tillar taraqqiyotida so‘z boshida jarangli undoshlarning kelishi kam kuzatiladi;

4) qadimgi o‘zbek tili davrida r, I, m, n, b, d kabi undoshlar so‘z boshida kelmagan. Hozirgi o‘zbek tilida jarangli undoshlar bilan boshlanadigan o‘zaklar fonetik o‘zgarishlar orqali hosil bo‘lgan ikkilamchi hodisadir.

Oltoy tillarga xos fonetik hodisalardan biri so‘z o‘rtasidagi jarang siz undoshlarning intervokal pozitsiyada jaranglilashuvlidir. Koreys tilida ham Ҷ, Ҳ harflari so‘z boshida t, k deb talafuz qilinib, so‘z o‘rtasida d, g deb talafuz qilinadi.

Koreys tilida undoshlar talaffuzi (음절)

Birinchi holatda bo‘g‘in oxirida 겹받침 (qo‘sh undosh) bo‘lsa-da, talaffuz qilinadigan undosh 1-si bo‘ladi.

Ikkinci holatda qo‘sh undoshning 2-si talaffuz etiladi. Shuningdek ikkala undosh ham o‘qiladigan holat bor:

1- undosh talaffuz qilinadigan holat: Ҷ人, Ҳ Ӯ, Ҷ Ӯ, Ҷ Ӯ, Ҳ Ӯ, Ӯ 人.

¹ X.A.Dadaboyev, Z.T. Xolmanova TURKIY TILLARNING QIYOSIY-TARIXIY GRAMMATIKASI "Tafakkur Bo'stoni" Toshkent-2015

Misol uchun: 않다 ko‘p. 않다 o‘tirmoq. 여덟 sakkiz, 갑 narx

2-undosh talaffuz qilinadigan holat: ㄹㄱ, ㄹㅁ, ㄹㅍ,

Misol: 달† tovuq 삶다 qaynatmoq. 올다 She'r o‘qimoq

Ikkala undosh ham talaffuz o‘qiladigan holat: ㄹㅂ, ㄹㄱ

예: 밟다 oyoq bosmoq, 넓다. keng. 읽다 o‘qimoq. 맑다 yorug‘.

So‘z tarkibidagi fonetik o‘zgarishlar (음운변화)

So‘z tarkibida yuz beradigan fonetik o‘zgarishlarga assimilyatsiya, dissimilyatsiya, tovuish o‘zgarishi, tovush qo‘shilishi va tovuish tushirib qolishi kabilar kiradi.

Koreys tili fonetikasida assimilyatsiya (artikulyatsiya jihatidan so‘z tarkibidagi tovushlarning o‘zaro bir-biriga ta’siri asosida vujudga keladigan o‘xhashlik)ning to’liq va to’liqsiz turi uchraydi. Bir-biriga aynan o‘xhash assimilyatsiya: 앞 [암], 부엌 [부 역], 옆 [앱]

Regressiv assimilyatsiya: 종로 [종노], 정류장 [정규장] burun (sonor) tovushlarning o‘zaro ta’siri.

Dissimilyatsiya (lot: dissimilatio- "noo‘xhashlik") tovushlarning o‘zaro ta’siri ostida vujudga keladigan noo‘xhashlikdir.

1. [n] burun undoshi tovushidan oldin yoki keyin kelganda L deb talaffuz etiladi]
: 단련 [달련] chidam, matonat, 설날 [설랄] yangi yil. 연락 [열락] aloqa

2. [r-]undoshi [m] harfidan keyin kelsa [n] deb o‘qiladi. 능름한데 [늠능한데], 감리교 [감니교] uslubiyat, 담론 [당논] baxs. Bular uchun umumiyl xususiyat ularning burun tovushlari ekanligidir.

Koreys tilida tovushning tushib qolish hodisasining sinkopa (so‘z o‘rtasida tovushning tushib qolishi va anokopa (so‘z oxirida tovushning tushib qolishi) turi uchraydi.

3.1 Ba’zi undosh tovushlar o‘zaro qo‘shilganda yoki ketma-ket kelganida bittasi tushib qoladi. Buning qat’iy bir qoidasi yo‘q. 끝자리 [꼬자리] so‘nggi joy, 끝도 [꼬또] qo‘sh undosh tovushi jarangsiz tovushlar oldida kelganda doim tushib qoladi. 밟았죠. [발바죠] oyoq bosmoq, 했잖아요.. [해짜나요] Ba’zi tovush tushishining

qat'iy qoidalari bo'ladi: unli harfdan oldin 받침 (so'nggi bo'g'in)da kelgan o'qilmaydi.

좋아요 [조아요], 많아요.. [마나요.]

3.2. Yuqorida ankopa to'g'risida fikr yuritgan edik. Koreys tilida ankopaga xos bolgan sof tovush tushishi yo'q, biroq shunga yaqin bo'lgan hodisa bor. Bu gapdag'i kesim o'zagiga qo'shilib kelgan shakl yasovchi qo'shimchalarining kategoriyal shakli (-야 요/어요.) tushirilib qoldirilsa, darak gap (평서문) ning norasmiy qisqa hurmat shakli (비격 식체) - (낮춤말) ga aylanadi.²

Qo'sh undosh tovush talaffuzi yoki tovush orttirilishi hodisasi

Koreys tilida asosan tovush orttirish hodisasing epenteza (so'z o'rtasida) turi ko'p uchraydi. Koreys tilida qo'sh undoshlar 2 xil bo'ladi sof qo'sh undoshlar, talaffuzdagi qo'sh undoshlar. So'z boshida keladigan 까지, 깍다. 땀, 빨리, 싸다. 짜다 kabilar protezaga misol bo'la olmaydi, ular sof qo'sh undoshlar hisoblanadi.³

Mahmud Koshg'ariy turkiy tillar fonetik qonuniyatini birinchi-lardan bo'lib yoritgan olimdir. U "Devonu lug'otit turk"da fonetik qonuniyatlarining tovush almashuvi, tovush tushishi, tovush ortishi kabi ko'rinishlarini batafsil izohlagan. Mahmud Koshg'ariy sharqiy va g'arbiy guruh turkiy tillarining qator farqli xususiyatlarini keltiradi.

Urg'u (악센트). Koreys tilidagi urg'u rus tiliga nisbatan kuchsizroqdir, agarda urg'u reduksiyalangan unlige ega bo'lmasa, u taqdirda hammavaqt so'zning oxirgi bo'g'inida keladi. Agar so'zning oxirgi bo'g'inida a yoki yo tovushi bo'lsa, urg'u to'la unlili eng yaqin bo'g'inga ko'chadi, so'zda hamma unlilar reduksiyalangan bo'lsa, adabiy tilda urg'u birinchi bo'g'inga tushadi.

Koreys va o'zbek tillar faqat genetik jihatdan qarindosh tillar bo'lib qolmasdan, ayni paytda tipologik jihatdan ham bir xil: tillarning morfologik tasnifi bo'yicha agglyutinativ tillar guruhiga kiradi. So'z o'zagi va so'z shakllaridagi mushtaraklik grammatika tizimida ham aks etadi. O'zbek tili agglyutinativ hisoblanadi. Huddi shunday koreys tili ham agglyutinativ til qoidalariiga buysinadi. Agghyutinatsiya-lotincha "yopishtirish", fleksiya "bukilish" ma'nosini anglatadi. Agglyutinatsiya «ketma-ketlik» ma'nosidagi so'z bo'lib, qo'shimchalarining o'zakka ma'lum tartibda va ketma-ket qo'shilishini ifoda etadi. Bunday hollarda o'zak va qo'shimchalar chegarasi sezilib turadi. Agglyutinativ tillarda so'z shakllari o'zgarmas holda qo'shiladigan affikslar yordamida yasaladi. Bunday tillarda affikslar, asosan, bir

² 국립국어원 한국어 문법 1. 2(외국인을 위한) (체계편, 용법편) 2004. 커뮤니케이션북스

³ Koreys tili grammatikasi 한국어 문법 강의안 Kim Chun Sig Toshkent 2007 yil

grammatik ma'noni ifodalaydi. Masalan, -lar faqat ko'plik qo'shimchasi sifatida qaraladi.

Agglyutinativ tillarga mansub koreys va o'zbek tillarining morfologik xususiyati quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

1. So'z doimo o'zakdan boshlanadi.
2. O'zak, asosan, o'zgarmasdir. Aksariyat hollarda o'zakdan keyin qo'shilgan har qanday affiks o'zakni fonetik jihatdan o'zgartirmaydi.
3. So'z shakllari, asosan, affikslar vositasida hosil qilinadi.
4. So'z shakllari hosil qilishda supplitiv shakllar ishtirok etmaydi, ya'ni bir so'zning turli shakllari faqat bir o'zakdan hosil qilinadi.
5. O'zak va affiks orasidagi chegara aksariyat hollarda, aniq bo'ladi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib shunday xulosaga kelish mumkin: turli tizimli tillar sistemasini qiyosiy o'rganish bir tomonlama sof nazariy lingvistik sohani qamrab olsa ikkinchi tomondan amaliy-uslubiy maqsadni ham o'z ichiga oladi, hamda tadqiqot jarayoni nazariya bilan amaliyot o'rtasida yaqin bog'lanishni vujudga keltiradi. Shu maqsadda, biz oltoy tillar oilasi sirasiga kiruvchi ikki tilda. Ya'ni koreys va o'zbek tillarini qiyosiy tahlilini ham amaliy, ham nazariy jihatdan tahlil qilib chiqdik va bir qancha o'xshashlik va noo'xshashliklarga duch keldik.

Bir oilaga mansub bo'lgan o'zbek va koreys tillari tipologik jihatdan tadqiq etildi. Bunda koreys va o'zbek tillarining fonetik xususiyatlarining umumiy va farqli jihatlari aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Koreys tili grammatikasi 한국어 문법 강의안 Kim Chun Sig Toshkent 2007 yil
2. X.A.Dadaboyev, Z.T. Xolmanova TURKIY TILLARNING QIYOSIYTARIXIY GRAMMATIKASI "Tafakkur Bo'stoni" Toshkent-2015
3. 국립국어원 한국어 문법 1. 2(외국인을 위한) (체계편, 용법편) 2004.

커뮤니케이션북스

4. 고등학교 문법 2006. 교육인적자원부
5. 남기심 표준 국어 문법론 2005 탑출판사